

## **ABDUQAYUM YO‘LDOSHEVNING “TO‘Y” QISSASI XUSUSIDA**

**G.Xasanova**

FarDU 2-kurs magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Abduqayum Yo‘ldoshev o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega ijodkorlardan biri hisoblanadi. Uning har bir asarida bir biriga o‘xshamagan voqealar, qahramonlar, ruhiyat tasvirlari uchraydi. Shuningdek qissalarda davr va qahramon masalasi, obrazlar talqini asarning asosiy bo‘g‘inini tashkil etadi. Ushbu maqola Abduqayum Yo‘ldoshevning “To‘y” qissasidagi davr va qahramon masalasiga to‘xtalib o‘tiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Qissa, epiklik, sentimentalizm, konsentrik sujet, davr, makon va zamon tushunchalari.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Абдукаюм Юлдошев – один из творцов, занимающих особое место в узбекской литературе. В каждом его произведении разные события, герои, персонажи, мысленные образы, а также в рассказах вопрос эпохи и героя, интерпретация образов является основным звеном произведения. Данная статья посвящена проблеме эпохи и героя в «Истории игрушек» Абдукаюма Юлдошева.*

**Ключевые слова:** *новелла, эпос, сентиментализм, концентрический сюжет, период, концепции пространства и времени.*

### **ABSTRACT**

*Abduqayum Yoldoshev is one of the creators who has a special place in Uzbek literature. In each of his works, there are different events, heroes, mental images. Also, in the stories, the question of the era and the hero, the interpretation of images is the main link of the work. This article focuses on the issue of the era and the hero in Abduqayum Yoldoshev’s “Toy” story.*

**Keywords:** *Concepts of short story, epic, sentimentalism, concentric plot, period, space and time.*

### **KIRISH**

Davr va qahramon muammosi adabiyotshunoslikdagi muhim masalalardan biridir. Akademik L.S.Lixachev qayd etganidek, “Davr insonni chetlab, hech narsa yarata olmaydi. Davr inson va uning maqsadi orqali ta’sir omiliga aylanadi. Bunda har kimga har xil ta’sir etadi. Chunki turli davrda insonlarning jamiyatda tutgan o‘rni turlichadir. Bunda har kimga har xil ta’sir etadi. Chunki turli davrda insonlarning jamiyatda tutgan o‘rni turlichadir.”[1.145]

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda biz masalaning bu tomoniga biz Abduqayum Yoʻldoshev asarlari orqali oʻrganmoqchimiz. Adibning har bir asari oʻziga xos yoʻnalish va mavzuda yaratilgan boʻlib, uning ijodida hikoyachilik va qissachilikda yangilik boʻlgan voqea-hodisalar tasvirini koʻrishimiz mumkin. Jumladan, yozuvchining “Puankare” hikoyasida keraksiz urf-odatlar insonning halokati ekanligi, uni olamshumul ishlardan toʻxtab qolishiga ishora beriladi. “Sunbulaning ilk shanbasi” qissasi esa sentimentalizm yoʻnalishda boʻlib oʻziga xos qurilishga ega. Asarda qahramonning nafaqat hayoti balki ruhiyatidagi kechinmalar ham mohirona tasvirlanadi. Asar qahramonning oʻzi bilan oʻzi betinim olishayotgan damlarida qay bir nuqtalar orqali uning qirralarini ochishga turtki boʻlgan qahramonlar qismatini yoritadi. Adibning “Begona shaharning namozshomlari” qissasi ham qahramonning samimiy his tuygʻulari bilan boshlanadi. Qissa xulosasi ham bugungi yoshlar uchun haqiqiy ibrat boʻla oladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ushbu maqolada biz adibning “Toʻy” qissasini davr va qahramon masalasi jihatdan tahlil etamiz. Qissa voqealar tasviri bilan kitobxonlar eʼtiborini torta oladigan asarlardan biri sanaladi. Qissada yaratilgan obrazlar makon va zamon tushunchalarini oʻzida jipslashtira olganligi bilan xarakterlidir.

Adabiyotshunoslik ilmidan maʼlumki, har qanday asar oʻz zamonasi, davri muammolariga, oʻsha kunlarning dolzarb savollariga bergan javobi sifatida maydonga keladi. Ijodkor xoh tarixiy, xoh zamonaviy asar yozsin ularda oʻz davrining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maʼnaviy belgilari oʻz aksini topgan boʻladi. Konsentrik sujet asosida yozilgan ushbu qissa oddiy qishloq hayoti tasviri bilan boshlanadi. Fayzulloning turmushi kitobxonga tanishtirishiladi. Ushbu tasvirlar bilan: “Falokat oyoq ostida deganlari rost ekan. Endi chopqillay boshlagan ikki yarim yashar qizchasi dom qarshisidagi bolalar maydonchasida oʻynab yurib, beton ariqchasidan sakrab oʻtaman deganda oyogʻi ariqqa tushib ketgan. Muvozanatini yoʻqotgan qizaloq bir aylanib orqasi bilan beton ariqchani qirrasiga urilgan. Ana shunda qizaloqning hali nozik umurtqa pogʻonasi qattiq lat yegan ekan. Duxtirlar avvaliga buni payqashmagan ekan payqashganda esa hali kech boʻlgan ekan.”[2-1]

Ushbu tasvirlardan soʻng kitobxon kafiyatida oʻzgarish boʻladi. Hali uch yoshga ham toʻlmagan qizning kutilmagan falokat orqali nogiron boʻlib qolishi insonning koʻnglini xira qiladi. Asar davomida Fayzulloning akasi Saydulloning toʻyga taklifi bilan qishloqqa borishi u yerdagi toʻy marosimining urf odatlari uni hayratlantiradi. Shunda akasi Saydulloning: E uka sen tushunmaydigan narsalar hali koʻp bu yerda. Shaharlik boʻlib, urf odatlarimizdan ancha uzoqlashib ketgansan-da[3-7]

Haqiqatan Fayzullo hali bilmaydigan va tushunmaydigan juda ko‘p narsalar bor ekan. To‘y urf odatlaridan biri bo‘lgan kuyovnavkarlar bilan borganda uni majburlab ichirmoqchi bo‘lgan Ashirmat va to‘ydan qaytayotganda ko‘chadagi yo‘l to‘suvschilar uning hayratini nafratga aylantiradi. Ayniqsa, bu yo‘l to‘suvschilar mashinada bir insonni urib yuborishi ya‘ni inson hayotini o‘yin qilishi qahramonning jahlini chiqaradi. Akasi Saydullo esa bunga parvo qilmay “shunaqada to‘yda shunaqasi ham bo‘lib turadi”, deya baholaydi. Biroq bu hali hammasi emas ekan: To‘y endi nihoyasiga yetganda akasi aytganday hali Fayzullo bilmagan urf odatlardan biri natijasida yakkayu yagona o‘g‘lining oyog‘i ishlamay qolishi insonning hayoti urf odatlar natijasida arzimas narsaga aylanib qolganligini yaqqol namoyon etadi.

Yozuvchi ushbu asarda nogiron bo‘lib qolgan Azimjon orqali keraksiz urf odatlar orqali millat ongining nogiron bo‘lib borayotganini ko‘rsatib bera olgan. Buni qissadagi Zamira va kelinning yangasi nutqidagi ushbu voqea orqali bilishimiz mumkin. “Gap shu hoziroq tillani qo‘ymasangiz ashqol-dashqolingizni yig‘ishtirib qaytib ketaveringlar. Mening ko‘chada qolgan jiyanim yo‘q. Insof ham kerak-da axir. Tuflini mayli dedik paltoga ham ko‘ndik. Lekin tilla masalasida bizni ahmoq qila olmaysiz” [4.10]. Parchadan ko‘rinib turibdiki, kattalar uchun yoshlarning baxti, ularning o‘y hayollari bilan hech kimning ishi yo‘q. Ular uchun moddiylik birinchi o‘ringa chiqqan. Asar so‘nggi esa achinarli tarzda yakunlanadi: “Bu uch sho‘rlilikning oh nolasi butun olamni tutgandek. Yo‘q, ana qandaydir shikasta faryodlarga qandaydir musiqa ohanglari qo‘shilayotgandek. Ha bu karnay surnaylarning olis-olislardan kelayotgan sadosiga o‘xshaydi. So‘ng esa “To‘ylar muborak” qo‘shig‘i yangrayotgandek”.

## **XULOSA**

O‘zbek xalqining mentaliteti haqida bu asarda birqancha fikrlar mavjud. O‘zbek to‘y qiladi, yillab yig‘ganini bir kunda to‘kib sochadi. Keyin esa... yana yillab qiyinchilik bilan mehnat qiladi... So‘ng esa yana to‘y... Tashqaridan kuzatib tugan odamning bu holatni ko‘rib ensasi qotsa kerak.

Xullas, har qanday ijodkorning yaratgan asariga baho berishda, uni g‘oyaviy badiiy jihatdan tahlil etishda davr masalasi yetakchilik qiladi. Chunki ijodkor o‘zi yashab turgan muhit, davr va siyosat talablaridan kelib chiqqan holda ijod qiladi. Odatda barcha asarlarda qahramon va davr mutanosib bo‘ladi. Ya‘ni qahramon davrdan o‘zib ketadi, qahramon va davr hamohanglikda harakatlanadi yoki aksincha qahramon davrdan ortda qoladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem" Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.
2. Sabirdinov, A. (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Конференции*, 1(2).
3. JURAYEV, H., & ABDURAHIMOVA, J. (2018). Semantic layers of the expression in the Babur lyric. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(3), 111-112.
4. Kasimov, A. A. (2020). PECULIARITIES AND SIMILARITIES OF SYMBOLIC EXPRESSION IN THE NOVELS "THE PICTURE OF DORIAN GRAY" AND "THE MAN AT THE MIRROR". *Theoretical & Applied Science*, (5), 590-592.
5. Shoxruxbek, M., Qosimov, A., Abdurashidovich, Q. A., Murodilovna, O. G., & Umurzakov, R. (2022). THE INWARD WORLD OF AN ARTISTIC DEPICTION OF THE CONTRADICTIONS.
6. Qosimov, A., Hamroqulov, A., & Xo'jayev, S. (2019). Qiyosiy adabiyotshunoslik. *Toshkent: Akademyashr*.
7. Yulchiyev, Q. (2019). The development of lyric chronotope in Uzbek poetry. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 77-81.
8. Юлчиев, К. В. (2020). ЛИРИК ШЕЪРДА БАДИИЙ МАКОН МУАММОСИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(5).
9. Azimovich, R. Z. Chronotope Image in the Novel" Ulugbek Treasure" by Odil Yakubov. *International Journal on Integrated Education*, 3(11), 183-186.
10. Rahimov, Z., & Gulomov, D. (2020, December). RETROSPECTIVE STRUCTURE IN FICTION. In *Конференции*.
11. Mukhammadjonova Guzalkhan. The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. Volume : 10, Issue : 11, November. - India, 2020.
12. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In *Конференции*.
13. Qayumov A. CREATING OF A NATIONAL CHARACTER THROUGH MEANS OF LITERATURE //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 1. – С. 235-240.
14. Джураева, М. А. (2020). THE CONCEPT OF A NEW HUMAN-BEING IN MODERN UZBEK STORIES. *Ученые записки Худжандского государственного*

университета им. академика Б. Гафурова. Серия гуманитарно-общественных наук, (2), 85-89.

15. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.

16. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. *International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies*. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.

17. Akhmadjonova O. A. Symbolic And Figurative Images Used In The Novel “Chinar” //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 389-392.

18. Ahmadjonova, O. (2020, December). THE ARTISTIC SKILL OF THE CREATOR. In Конференции.6. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 245-249.

19. Xasanova, X. (2020, December). THE MISSION AND LITERATURE OF LETTERS IN STORIES AESTHETIC FUNCTION. In Конференции.

20. Makhmidjonov, S. (2021). ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE EDGES OF THE HUMAN PSYCHE. *Интернаука*, (15-3), 75-76.

21. Dehkonova, M. S. (2020). OYBEK’S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. *Theoretical & Applied Science*, (2), 13-17.

22. Hamidov, M. (2020, December). ARTISTIC FEATURES OF SHUKHRAT'S NOVEL" MASHRAB". In Конференции.

23. UMURZAKOV, R. (2018). Social environment and spiritual world of teenager in narrative “Saraton” by N. Fozilov. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(4), 104-105.

24. Umurzakov, R. (2021). ERA AND SPIRIT IN THE STORY “TWICE TWO IS FIVE”. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 26-35.

25. Rahimov Z., Gulomov D. Retrospective plot features. *EPRA International Journal of MULTIDISCIPLINARY RESEARCH(IJMR)*, 2020, november, No6, page510-513.

26. Oripova, Gulnoza Murodilovna, Akhmadjonova, Okila Abdumalikovna, Kholmatov, Oybek Umarjon Ugli, & Muminova, Tabassum Siddigovna (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. *International scientific journal of Biruni*, 1 (2), 304-309.

27. Xo‘jayev, S., & qizi Tuychiboyeva, N. K. (2022). BOLA RUHIYATI TASVIRI (CH. AYTMATOV VA O‘. HOSHIMOV ASARLARI MISOLIDA). *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(3), 125-129.
28. Xo‘Jayev, S., & Abdumalikova, D. R. Q. (2022). BADIY ADABIYOTDA OPA-SINGILLAR OBRAZI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 734-740.
29. Mo‘Minova, T. S. (2022). BADIY ASARDA NUQTAI NAZAR VA XARAKTER IFODASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 768-774.
30. Rustamova, I. I. (2021). Rhythm Views on the Plot of the Work. *Badiy asar syujetida ritm ko‘rinishlari.//International Journal of Innovative Research.–India*, 8355-8357.
31. Rustamova, I., & Mamayusupov, S. (2022). AUTHOR’S POSITION AND STORY FUNCTION IN ABDULLAH QAHHOR’S STORY" HEADLESS MAN". *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 120-127.